Farhod ASHMATOV

NEGA DEPUTATLAR IKKITA QONUN LOYIHASIGA QARSHI OVOZ BERDILAR?

3-sahifa

ENDI BOLA BOQQANI UCHUN ERKAKLARGA HAM TA'TIL BERILADI

2s



TURKISTONDAN QUVILIB, QANDAHORDA FAQIRLIKDA VAFOT ETGAN FIDOYI KIM EDI?

7-sahifa

milliy tiklanish

QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

№ 6 (1238) 2024-yil 21-fevral, chorshanba Adadi — 5 036

1995-yil 10-iyundan chiqa boshlagan www.mt.uz t.me/milliytiklanish2022@umail.uz

JAMIYATIMIZDA IJTIMOIY ADOLAT VA INSON QADRINI TA'MINLAYMIZ

DESAK, BU YANGI TIZIMNI JOYLARDA SAMARALI ISHLATIB, MUHTOJ INSONLARGA MADAD VA UMID BAG'ISHLASHIMIZ KERAK

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 20-fevral kuni ijtimoiy himoya sohasidagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi o'tkazildi.

Mamlakatimiz Konstitutsiyasining 1-moddasida O'zbekiston ijtimoiy davlat ekani belgilangan. Shunga muvofiq, 2023-yil 1-iyunda aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish bo'yicha farmon qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi.

O'tgan vaqt mobaynida o'ndan ortiq davlatning tajribasi chuqur o'rganildi, malakali ekspertlar jalb qilindi. Shu asosda olib borilgan tahlillarga ko'ra, bu soha 30 yil oldingi tizimda qolib ketgan, faqat davlat ajratgan pulni tarqatish bilan shug'ullangan. Bu ayrim odamlarni o'zini o'nglab olishga emas, yordam kutib yashashga o'rgatib qo'ygan. Misol uchun, mehnatga layoqatli kishilarga ham nafaqa to'lab kelingan. Nogironligi borlarni tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya qilish, kasbga o'rgatish orqali hayotga qaytarishga yetarlicha e'tibor berilmagan.

Davlatimiz rahbari bu tizimni tubdan isloh qilish, ijtimoiy yordamning manzilliligi va natijadorligini ta'minlash zarurligini ta'kidladi.

– Bu sohada umumiy ishlab bo'lmaydi. Har bir oila va inson taqdiriga alohida, professional yondashish lozim. Ijtimoiy xizmat to'g'ri yo'lga qo'yilsa, ehtiyojmand fuqarolar jamiyatda o'z o'rnini topadi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig'ilishda shu boradagi ustuvor vazifalar belgilandi. Avvalo, ijtimoiy xizmat va yordamni mahalla darajasida tashkil etish masalalari ko'rib chiqildi.

Davomi 2-sahifada

«MILLIY TIKLANISH»



«Ayollarga kafolatlangan tug'ruq ta'tilini bola uch yoshga to'lgunicha berish, bu davrda nafaqa pulini tayinlash taklifini ilgari suryapmiz. Ona muhim davrda pul topish uchun ishga chiqib ketmasligi lozim»

Alisher QODIROV

ANONSLAR

6s

«BARBI» HAMDA «MASHA VA MAYMOQ» KO'LANKASI

«TARBIYADA TANAFFUS BO'LMAYDI!..»

5s

YUNISEF VA STATISTIKA AGENTLIGI SO'ROVIGA KO'RA, O'ZBEKISTONDA

14

YOSHGACHA BO'LGAN BOLALARNING

69 foizi oilada zo'ravonlik bilan tarbiya qilinyapti. 30 foizi esa bevosita jismoniy zo'ravonlikka uchrayapti.

2-sahifa

OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI DEPUTATLARI DIQQATIGA!

CHO'CHIMANG,

G'ARB QABUL QILIBDIKU, JANOB DEPUTATLAR!

4s

DUNYO TAN OLGAN IJODKORLAR Zulfiyaxonim HAQIDA

5s

2024-yilning 21-fevral sanasidan. Manba: cbu.uz

✓ AQSH dollari 12475.51. ✓ 1 YEVRO 13471.06. ✓ 1 Rossiya rubli 135.09. ✓ 1 Angliya funt sterlingi 15724.13. ✓ 1 Yaponiya iyenasi 83.02.

ISSN 2010-7919

milliy tiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
21-fevral, 2024-yil
№6 (1238) chorshanba

(Boshlanishi 1-sahifada)

IJTIMOIY HIMOYANING YANGI TIZIMI INSON QADRINI TA'MINLASHGA XIZMAT QILADI



So'nggi oylarda kam ta'minlangan oilalar manzilli o'rganilgani hamda tizim shaffof qilingani natijasida doimiy daromadga ega oilalar bunday toifadan chiqarilgan. Aksincha, o'zgalar parvarishiga muhtoj, yolg'iz yashayotgan 2 ming kishiga yordam ko'rsatish yo'lga qo'yilgan.

Umuman, ijtimoiy himoya tizimi bilan 250 ta xizmat qamrab olingan bo'lsa-da, mahalladagi aholi ularning yarmini ham bilmaydi.

Shu bois, 1-iyundan ijtimoiy himoyaga muhtoj aholini aniqlash tartibi va ular bilan ishlash tizimi o'zgaradi. Bunda ehtiyojmand toifani aniqlash bo'yicha mezonlar ishlab chiqiladi va ularning aynan qanday yordamga muhtojligi aniq belgilab beriladi. Muhtojlarning har biri bo'yicha individual ijtimoiy xizmatlar dasturi bo'ladi.

Bu borada yagona savolnoma joriy qilinadi. Xonadonga «mahalla yettiligi»ning qaysi vakili kirishidan qat'iy nazar, oiladagi muammo va imkoniyatlar aniqlanib, «ijtimoiy portreti» chiziladi. Yordamdan so'ng xonadonda nima o'zgargani monitoring qilib boriladi.

Bu yerda gap mablag'ni qisqartirish haqida emas, uni o'z egasiga – haqiqiy muhtojlarga berish va jamiyatga integratsiya qilish haqida ketmoqda.

Yana bir muhim jihati, mahalladagi barcha ijtimoiy xizmatlarni bosqichma-bosqich ijtimoiy xizmat ko'rsatish shartnomasi orqali taqdim etish yo'lga qo'yiladi. Bunda xizmat ko'rsatuvchi ham, yordam oluvchi ham o'ziga majburiyat oladi.

Endi nafaqa oluvchilar ro'yxatiga, birinchi navbatda, nogironligi bor, ota-onasi yo'q, boquvchisini yo'qotgan, kasalligi va boshqa sababga ko'ra uzoq muddat ishlay olmaydiganlarning oilalari kiritiladi. Boshqa fuqarolarni «ijtimoiy reyestr»ga kiritishda ularning faqat daromadi emas, balki xarajatlari ham baholanadi.

Shu yil 1-oktyabrdan aholiga ko'rsatiladigan barcha ijtimoiy yordamlar «ijtimoiy karta» orqali moliyalashtiriladi. Kelgusi yildan 40 ta tumanda reabilitatsiya, sog'lomlashtirish va nogironligi borlarga qarovchilarni o'qitish bo'yicha ko'p tarmoqli ijtimoiy xizmatlar markazlari ishga tushiriladi.

Yig'ilishda nogironligi bo'lgan insonlar manfaatlariga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston 2021-yilda Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilgan. Bunday shaxslarni ishga olgan korxona va tashkilotlar uchun bir qator imtiyozlar berilgan.

Lekin ko'p muassasalar, ko'chalar va bekatlar imkoniyati cheklangan shaxslar harakatlanishi uchun moslashmagan. Maktab va kollejlarda sharoit yo'qligi sababli ota-onalar nogironligi bor farzandini uzoqdagi maxsus internatga joylashtirishga majbur. Bu oila uchun, ayniqsa, bola uchun juda og'ir.

Shu bois, endi nogironligi bo'lgan shaxslarni o'qitish, ishga joylash va sportga jalb qilish bo'yicha milliy tizim bo'ladi. Nogironligi bo'lgan shaxslarga ishlash va kasb-hunarga o'qishda to'siqsiz muhit yaratish uchun ularning «mehnatga layoqatini belgilash» amaliyotidan voz kechiladi.

Bunda nogironlik kasallikka qarab emas, balki shaxsning mustaqil harakati, muloqot qobiliyati va ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga qarab belgilanadi.

Tuman markaziy shifoxonalarida tibbiy reabilitatsiya xonalari tashkil etiladi. Protez vositalari 18 turdan 30 turga, ajratilayotgan mablag' esa 1,5 barobar oshirilib, ular bilan ta'minlash elektron shaklda bo'ladi. Bunday vositalarni uydan turib, vaucher orqali onlayn yoki «Inson» markazi yordamida istalgan ishlab chiqaruvchidan olish mumkin bo'ladi.

Bino va inshootlarni qurish loyihasi nogironligi bo'lganlar uchun qulay muhit yaratilganligi bo'yicha ham majburiy ekspertizadan o'tkaziladi.

Jamoat transporti, bekatlar va chorrahalarda ular uchun to'siqsiz muhit yaratish choralari ko'riladi.

Xodimlarining 50 foizida nogironlik bo'lgan tadbirkorlarga davlat buyurtmachilari bilan to'g'ridan to'g'ri shartnoma tuzish imkoniyati beriladi. Bunday shaxslarni kasbga tayyorlaydigan 4 ta ixtisoslashgan maktab sanoat tarmoqlariga biriktiriladi. Nogironligi borlar kasanachilik va hunarmandchilik asosida yaratgan mahsulotlarni elektron platforma orqali sotish yo'lga qo'yiladi.

> O'ZBEKISTON 2021-YILDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR HUQUQLARI TO'G'RISIDAGI KONVENSIYAGA QO'SHILGAN. BUNDAY SHAXSLARNI ISHGA OLGAN KORXONA VA TASHKILOTLAR UCHUN BIR QATOR IMTIYOZLAR BERILGAN. LEKIN KO'P MUASSASALAR, KO'CHALAR VA BEKATLAR IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLAR HARAKATLANISHI UCHUN MOSLASHMAGAN. MAKTAB VA KOLLEJLARDA SHAROIT YO'QLIGI SABABLI OTA-ONALAR NOGIRONLIGI BOR FARZANDINI UZOQDAGI MAXSUS INTERNATGA JOYLASHTIRISHGA MAJBUR.

Sportni rivojlantirish assotsiatsiyasi tashkil etilib, nogironligi bor shaxslar mahalladan boshlab ommaviy sportga jalb qilinadi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarda umid va o'ziga ishonch uyg'otadigan badiiy asarlar yaratiladi.

Ota-ona mehriga muhtoj bolalarni tarbiyalash bo'yicha ham vazifalar belgilandi.

Endi joylarda vasiylik va homiylik masalalari, ota-ona qaramog'idan mahrum bolalar bilan mahalladagi ijtimoiy xodimlar shug'ullanadi.

Buning uchun hokimliklar huzuridagi Vasiylik va homiylik komissiyalari tugatilib, 1-avgustdan ularning vakolati «Inson» markazlariga o'tkaziladi.

Yetim va nazoratsiz qolgan bolalarni qaramoqqa olish bo'yicha «ixtisoslashgan tutingan oila» tizimi joriy etiladi. Ixtisoslashgan 160 ta ta'lim muassasasida bosqichma-bosqich «g'amxo'rlik» guruhlari tashkil qilinadi.

Ota-onasidan ayrilgan yigit-qizlarga ko'maklashish tizimi ham o'zgaradi. Endi «Yoshlarga hamrohlik» dasturi asosida ularni qo'llab-quvvatlash 23 yoshgacha etib belgilanadi.

Ichki ishlar tizimidagi Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazlari «Hayot maktabi» sifatida qayta tashkil qilinadi. Ular tarbiyasi og'ir bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirish bo'yicha kompleks xizmat ko'rsatadigan maskanga aylantiriladi.

Yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarga uy-joy berish tizimi ham qayta ko'rib chiqiladi. Bunda «Inson» markazlari tomonidan haqiqatda uy-joyga muhtoj yoshlar ro'yxati shakllantiriladi. Ularga beriladigan uy-joyning narxi bozor bahosidan kelib chiqib, hududlar kesimida belgilanadi. Mutasaddilarga hozirda navbatda turgan yetim bolalarni uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatma berildi.

Zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar va bolalar reabilitatsiya bilan yetarlicha qamrab olinmagani qayd etildi. Shu bois, bu borada mahalla darajasida alohida tizim yaratiladi. Qiyin vaziyatdagi yosh onalarni qo'llab-quvvatlash, go'daklar yetim qolishining oldini olish uchun «Onalar maskani» xizmati tashkil etiladi. Shuningdek, tuman shifoxonalarida zo'ravonlikka uchraganlarga tibbiy va ruhiy yordam ko'rsatish uchun tunu kun ishlaydigan xonalar ochiladi.

Yig'ilishda Bosh vazir, soha mutasaddilari va hokimlar ishni tashkil etish rejalari yuzasidan axborot berdi.

– Jamiyatimizda ijtimoiy adolat va inson qadrini ta'minlaymiz desak, bu yangi tizimni joylarda samarali ishlatib, muhtoj insonlarga madad va umid bag'ishlashimiz kerak, – dedi Prezident.

O'zA

✓ Fraksiyada

ENDI BOLA BOQQANI UCHUN

2021-yili O'zbekistonda bolalar bilan bog'liq 1800 ta jinoyat sodir etilgan. 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 20 foizga oshib, 2194 tani tashkil qilgan. Achinarlisi, bugun bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik kuchayayotgani aytilmoqda. 2021-yilda bu ko'rsatkich 334 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 400 ga yaqinlashdi. Bu esa bolalarga nisbatan sodir etilgan jami jinoyatlarning 18 foizini tashkil etyapti. YUNISEF va Statistika agentligi so'roviga ko'ra, O'zbekistonda 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning 69 foizi oilada zo'ravonlik bilan tarbiya qilinyapti. 30 foizi esa bevosita jismoniy zo'ravonlikka uchrayapti.

Keyingi yillarda bolalar huquqini himoya qilish ustuvor vazifaga aylandi. Majburiy mehnatga butkul barham berilgach, bunday holatlarga nisbatan murosasiz munosabat shakllandi. Natijada O'zbekistonning Global bolalik reytingidagi o'rni 2017-yildagi 78-o'rindan 2021-yilda 62-o'ringa ko'tarildi.

Biroq globallashayotgan dunyoda bu boradagi huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirish, qonuniy choralarni qat'iylashtirish ehtiyoji kun tartibidan tushmayapti. Ma'lumotlarga qaraganda, dunyo bo'yicha har yili 1 milliarddan ortiq bola turli zo'ravonliklarga duchor bo'lyapti va bu raqam yildan yilga oshib boryapti.

Tashvishlanarlisi, bola eng ko'p zo'ravonlikka uchraydigan joy uning o'z uyi bo'lib qolmoqda. Ma'lumot uchun: AQSHda bolaga nisbatan zo'ravonliklarning 76 foizi aynan oila a'zolari tomonidan sodir etilar ekan.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatimizda ham bu boradagi holatlar ijobiy emas. 2021-yili O'zbekistonda bolalar bilan bog'liq 1800 ta jinoyat sodir etilgan. 2022-yilga kelib bu ko'rsatkich 20 foizga oshib, 2194 tani tashkil qilgan. Achinarlisi, bugun bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik kuchayayotgani aytilmoqda. 2021-yilda bu ko'rsatkich 334 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 400 ga yaqinlashdi. Bu esa bolalarga nisbatan sodir etilgan jami jinoyatlarning 18 foizini tashkil etyapti.

YUNISEF va Statistika agentligi so'roviga ko'ra, O'zbekistonda 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning 69 foizi oilada zo'ravonlik bilan tarbiya qilinyapti. 30 foizi esa bevosita jismoniy zo'ravonlikka uchrayapti.

«Bola huquqlari to'g'risida»gi Konvensiyada har bir davlat bolalarni zo'ravonlik, ekspluatatsiya, tahqirlash va g'amxo'rlik ko'rsatmaslik kabi holatlardan himoya qilish uchun barcha choralarni ko'rishi belgilangan. Lekin bizda faqat jismoniy, jinsiy va ruhiy zo'ravonlik bilan kurashib kelinadi. Shu bois, xalqaro talab va huquqni qo'llashdagi muammolardan kelib chiqib, «Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida»gi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining navbatdagi yig'ilishida ushbu qonun loyihasi birinchi o'qishda muhokama qilinib, bir ovozdan qabul qilindi.

Deputatlarning fikricha, ushbu qonun bilan bolalar zo'ravonliklarining oltita turini aniq belgilash taklif qilinyapti. Bular jismoniy, jinsiy va ruhiy zo'ravonlik bilan birga g'amxo'rlik qilmaslik, ekspluatatsiya va hozir keng taraqalayotgan bulling kiritilmoqda.

Bulling bu bir guruh bolalar yoki bir bolaning boshqa bolaga yoxud bolalarga nisbatan haqoratli laqablardan foydalanish, u bilan har qanday muloqotni cheklab qo'yish, uning mol-mulkini qo'lga kiritish va zarar yetkazish, sha'ni va qadr-qimmatini kamsitish yoki sog'lig'i va hayotiga ziyon yetkazishda ifodalangan, shu jumladan,

> Mas'ul qo'mita qonun loyihasini birinchi o'qishda qabul qilishni va uni ikkinchi o'qishga qadar maromiga yetkazishni taklif qilgan bo'lsa-da, muhokamalardan keyin qonun loyihasi ovozga qo'yildi hamda yetarlicha ovoz to'plamaganligi tufayli rad etildi.

milliy tiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
3
21-fevral, 2024-yil
№6 (1238) chorshanba

NEGA QONUN LOYIHALARI RAD ETILDI?

Yoki qarovsiz qoldirilgan mushuk egasiga solinadigan jarimaning noqonuniyligi xususida

Farhod ASHMATOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Parlament quyi palatasining o'tgan haftadagi yalpi majlisida deputatlar ikkita qonun loyihasiga qarshi ovoz berdilar. Shuni alohida qayd etish joizki, birinchi qonun loyihasi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning yo'l harakati sohasini tartibga soluvchi bir qancha moddalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish nazarda tutilgan.
Kodeksning amaldagi 17¹-moddasi birinchi qismida yo'l harakati qoidalari buzilganligi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan taqdirda transport vositasining mulkdori ma'muriy javobgarlikka tortilishi belgilangan. Taklif etilgan qonun loyihasida esa ushbu jazoga mazkur huquqbuzarlik uchun transport vositasining mulkdori yoki transport vositasidan fuqarolik-huquqiy tartibda foydalangan shaxs tortilishi taklif etilgan.

Tashabbuskorlar tomonidan taklif etilayotgan g'oya aslida to'g'ri bo'lib, qonun loyihasidan ko'zlangan maqsad ham ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan transport vositasini boshqargan shaxsning o'zini javobgarlikka tortish mexanizmini yaratishdan iboratdir.

Lekin qonun ijodkorlari bu g'oya va maqsadni qonun loyihasida to'g'ri ifoda etmaganlar. Bir jihatdan qaraganda, loyihada belgilangan normalar juda to'g'riga o'xshaydi. Ammo normaning shunday tahrirda qabul qilinishi amaliyotda qonunni qo'llovchilar, shuningdek, ma'muriy javobgarlikka tortiluvchilar uchun muammolar keltirib chiqarishi mumkin edi.

Birinchidan, transport vositasidan «fuqarolik-huquqiy tartibda foydalanish» tushunchasining ma'nosi birorta qonunda ochib berilmagan. Albatta, bunda ishonchnoma yoki ijara shartnomasi asosida foydalanish nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. Lekin bilamizki, fuqarolik-huquqiy munosabatlarning chegarasi yo'q. Masalan, fuqaro o'z mulkidagi transport vositasini shartnoma asosida boshqa shaxsga saqlab turishga yoki ijaraga berishi mumkin. Ya'ni, u transport vositasini umuman boshqarmasligi ham mumkin. Taklif etilayotgan normaga ko'ra, bu holatda transport vositasining mulkdori ham, transport vositasini boshqarmagan yuqoridagi shaxs ham ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lib qolayapti.

Shunga ko'ra, oldin «transportdan fuqarolik-huquqiy tartibda foydalanuvchi shaxs» degan tushunchani aniqlashtirish lozim bo'ladi.

Ikkinchidan, qonunda biror bir javobgarlik o'rnatish o'ta aniqlikni talab etadi. Biroq yuqoridagi qonun loyihasida nazarda tutilgan o'zgartirish va qo'shimcha bilan qonun ijodkori o'ziga shart-sharoit yoki imkoniyat yaratmoqda. Unga ko'ra, 17¹-moddaning birinchi qismidagi huquqbuzarlik maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalari orqali qayd etilgan yo'l harakati qoidalarini buzish sodir etilsa, xohlasa transport vositasining mulkdorini, xohlasa undan foydalangan shaxsni javobgarlikka tortish imkoniyati yaratilmoqda. Chunki mazkur normada «yoki» degan so'z ishlatilmoqda. Bu esa, korrupsiyaga olib kelishi mumkin.

Uchinchidan, bugungi kunda transport vositalari haydovchilari tomonidan yo'l harakati qoidabuzarligini sodir etganlik uchun «jarima ballarini hisoblash tizimi»ni joriy etish ko'zda tutilmoqda.

Taklif etilayotgan norma qabul qilingan taqdirda, kelgusida «jarima ballarini hisoblash tizimi» ishga tushganidan keyin transport vositasida yo'l harakati qoidabuzarligini sodir etganlik uchun jarima ballarini transport vositasining mulkdoriga yoki mazkur transport vositasidan foydalangan shaxsga nisbatan qo'llashga doir norma turlicha talqin etilib, turli tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Masalan, hozir Senatda ko'rib chiqilayotgan boshqa qonunga ko'ra, transport vositasi boshqaruvi chog'ida bir yil davomida yo'l harakati qoidalarini buzganlik natijasida yig'ilgan ballar miqdori 12 dan oshsa, shaxs haydovchilik huquqidan mahrum qilinishi kerak. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, transport vositasini ishonchnoma asosida boshqarayotgan shaxs qoidani buzsa, unga ball qo'ymaslik uchun umuman haydovchilik guvohnomasi mavjud bo'lmagan va transport vositasining uni boshqarmaydigan mulkdori ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin.

To'rtinchidan, Ichki ishlar vazirligi tomonidan ishlab chiqilib, hukumat tomonidan oxirgi uch oyda kiritilgan hamda bitta sohaga tegishli bo'lgan 3 ta qonun loyihasining har birida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 17¹-moddasiga konseptual jihatdan uch xil ma'noni anglatadigan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif etilgan.

Bunday holat qonun loyihalarining muhokamasi va qabul qilinish jarayonlarini qiyinlashtiradi. Ya'ni, hali oldin qabul qilingan o'zgartirish va qo'shimchalar kuchga kirmasdan turib, yana shu moddaga tuzatish kiritishga to'g'ri keladi.

Taklif qilinayotgan keyingi yana bir muhim yangilikka e'tibor qaratmoqchiman. Qonun loyihasi bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 283-moddasidagi sodir etilgan huquqbuzarlik uchun joyning o'zida jarima solinishini va jarima to'laganligi to'g'risida aybdorga belgilangan shakldagi kvitansiya berilishini nazarda tutuvchi normani bekor qilish taklif etilmoqda.

Deputatlarning fikricha, qonun loyihasini ishlab chiqqan tashabbuskor vazirlik aslida fuqarolarga qulay bo'lishi uchun yaratilgan tizimdan tor idoraviy manfaatlarni ko'zlab voz kechishni taklif etmoqda.

Mas'ul qo'mita qonun loyihasini birinchi o'qishda qabul qilishni va uni ikkinchi o'qishga qadar maromiga yetkazishni taklif qilgan bo'lsa-da, muhokamalardan keyin qonun loyihasi ovozga qo'yildi hamda yetarlicha ovoz to'plamaganligi tufayli rad etildi.

Endi deputatlar tomonidan rad etilgan «O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun javobgarlikka tortish tartibini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida»gi ikkinchi qonun loyihasining rad etilishi sababiga to'xtalsak.

Ma'lumki, amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 138-moddasida «...yo'llarga ajratilgan mintaqa tegrasida mol boqish» uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Biroq taklif etilgan loyihada yo'llarga ajratilgan mintaqada uy hayvonlarini boqish yoki ularni qarovsiz qoldirish uchun javobgarlik belgilanmoqda.

Vaholanki, uy hayvoniga mollardan tashqari it, mushuk, tovuq, quyon, o'rdak, g'oz va hokazolar kiradi. Shu bois, deputatlarning fikricha, loyihaning qabul qilinishi kelajakda tushunarsiz va kulgili vaziyatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, yo'llarga ajratilgan mintaqa tegrasiga chiqib ketgan mushuk uchun ham uning egasini topish va javobgar qilish kerak bo'ladi, ya'ni aslida aybsiz bo'lgan shaxslarni javobgarlikka tortishga to'g'ri keladi.

Bundan tashqari, loyiha bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 136-138-modalariga individual harakatlanish vositasini boshqarib borayotgan shaxslarning yo'l belgilari talablariga rioya etmaganligi uchun javobgarlik belgilanmoqda.

Biroq bugungi kunda «individual harakatlanish vositasi» tushunchasi qonunchilikda ochib berilmagan. Shuningdek, hukumat qarori bilan tasdiqlangan yo'l harakati qoidalarida ham individual harakatlanish vositalarini boshqarish bo'yicha talablar o'rnatilmaganligi huquqiy jihatdan tartibga solinmagan qoida uchun javobgarlik belgilanishiga olib keladi.

Qonun loyihasidagi yana bir norma haqida to'xtalmoqchiman. Foto va video vositalar orqali yo'l harakati qoidalari buzilganligi qayd etilgan paytdan e'tiboran 48 soat ichida qoidabuzarlik to'g'risidagi ma'lumotlarni jarima solish vakolatiga ega shaxsga yuborish taklif etilgan. Lekin ushbu normada yana eskicha qoida saqlab qolinib, bunda faqat transport vositasining mulkdorini javobgarlikka tortish nazarda tutilgan, xolos.

Ushbu qoidani aks ettirish taklif etilgan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 17¹-moddasiga qonun tashabbuskorlari tomonidan qisqa muddat ichida 3 marotaba bir-biriga muvofiq kelmaydigan turli normalarni kiritish taklif etilgan. Bu holat esa deputatlarning mazkur modda bo'yicha uzil-kesil to'xtamga kelishiga to'sqinlik qildi.

ERKAKLARGA HAM TA'TIL BERILADI

Internet orqali amalga oshiriladigan muttasil psixologik, jismoniy tajovuzkor harakat hisoblanadi.

Amaliyot shuni ko'rsatyaptiki, bolalar zo'ravonligi bilan asosan huquqni muhofaza qilish organlari kurashyapti, ammo afsuski, bu kutilgan natijani bermayapti. Qonunchilikda bu bilan shug'ullanadigan yagona davlat organi ham belgilanmagan. Shu bois, ushbu qonun loyihasi bilan Ijtimoiy himoya milliy agentligi bu boradagi ishlarga mas'ul etib belgilanyapti. Yana to'qqizta davlat organi bevosita bu ishlar bilan shug'ullanadi. Bolalar milliy komissiyasi esa barcha ishlarni muvofiqlashtirib boradi.

Ushbu qonun bilan ilk bora yangi institut joriy qilinyapti. Ya'ni, endilikda bolalarga ham himoya orderi berish taklif qilinmoqda. Orderi vakolatli organ tomonidan zo'ravonlikdan jabrlanuvchining qonuniy vakiliga yoki bolani o'z qaramog'iga olgan boshqa shaxsga hamda zo'ravonlikdan jabrlanuvchining o'ziga beriladi. Shu bilan birga zo'ravonlik sodir etgan oilalar bilan ishlash instituti ham joriy etilmoqda.

«Xalqaro mehnat tashkilotining ishlayotgan erkaklar va ayollar uchun teng munosabatlar va teng imkoniyatlar: oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar to'g'risidagi 156-sonli Konvensiyasini (Jeneva, 1981-yil 23-iyun) ratifikatsiya qilish haqida»gi qonuni loyihasi ham deputatlarning qizg'in muhokamalariga sabab bo'ldi.

Xalqaro mehnat tashkilotiga a'zo bo'lgan 187 ta davlatning 45 tasi tomonidan ratifikatsiya qilingan mazkur Konvensiya oilaviy majburiyatlarga ega bo'lgan xodimlar (ayollar va erkaklar) uchun teng imkoniyat va shart-sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, unga qo'shilgan davlatlar bunday xodimlarga nisbatan mehnat huquqlari sohasida kamsitishlarning oldini olish choralarini ko'rish majburiyatini o'z zimmalariga oladi. Ya'ni, amaldagi qonunchiligimizda bolani parvarishlash ta'tili faqat ayollarga berilar edi. Endi bu qonun loyihasi bilan erkaklarga ham bola boqqani uchun ta'til berish nazarda tutilyapti. Qonunchilikka ko'ra, bunday ta'til yo ayolga yoki erkakka beriladi. Kimning ta'til olishi masalasi esa o'zaro oilaviy hal qilinadi.

Fraksiya rahbari Alisher Qodirov qonun loyihasini ijobiy baholab, «Milliy tiklanish» partiyasida uch yildan buyon davom etib kelayotgan ayollarning ishga bir soat kech kelishi va bir soat vaqtli ketish tajribasini esga oldi.

Konvensiyada belgilangan talablarni inobatga olsak, aslida bu tajriba kamsitish hisoblanadi. Lekin o'zbek oilalarida farzand tarbiyasida erkakka qaraganda ayolning o'rni katta. Birgina misol: bugun eng katta muammolardan biri tug'ilgan farzandlarning 90 foizi ona suti bilan katta qilinmayotganidir. Bunday bolalarning esa avvalo onaga, keyinchalik Vatanga mehri bo'lmaydi.

Bolaning har tomonlama sog'lom ulg'ayishida ona sutining ahamiyati beqiyos. Ona suti bolaga aqliy mo'jiza yaratish imkonini ham beradi va uning o'rini hech qanday mahsulot bosa olmaydi. Bu ham ayolning oiladagi o'rni qanchalik muhim ekanini ko'rsatadi. Shu ma'noda, ayolga ham oilada, ham ishxonada qancha sharoit yaratib bersak shuncha kam. Lekin bunday Konvensiyalarda ayollarga ko'rsatilayotgan mehr-muhabbatimiz, imtiyoz va e'tiborimiz kamsitish sifatida baholanadi. Xalqaro hujjatlarni qabul qilishda qadriyatlarimiz ham e'tiborga olinishi lozim. Ayollarga imtiyoz berishda esa davom etishimiz kerak.

– Shu bois, partiyamiz ayollarga kafolatlagan tug'ruq ta'tilini bola uch yoshga to'lgunicha berish, bu davrda nafaqa pulini tayinlash taklifini ilgari suryapti. Ona muhim davrda pul topish uchun ishga chiqib ketmasligi lozim, – dedi Alisher Qodirov.

Fraksiya a'zosi Jahongir Shirinov ham bu fikrlarni qo'llab-quvvatlab, qonunchiligimizga partiyamiz tashabbusi bilan moslashuvchan ish vaqti kiritilgani va bundan asosan ayollar foydalanishini ta'kidladi. Deputatning fikricha, xalqaro Konvensiya talablarini buzmagan holda ayollarni qo'llab-quvvatlashda davom etishimiz lozim. Zotan, kelajak avlodni onalar tarbiyalaydi.

Qizg'in muhokamalardan so'ng qonun loyihasi birinchi o'qishda ma'qullandi.

Ravshan MAHMUDOV,
«Milliy tiklanish» muxbiri

milliy tiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
21-fevral, 2024-yil
№6 (1238) chorshanba

KECHIKKAN BO'LSA-DA, MILLIY PARLAMENTIMIZ BU TAJRIBANI O'ZIMIZGA HAM TATBIQ ETISH UCHUN KERAKLI QONUNNI QABUL QILISHI KERAK. ENG MUHIMI, HECH KIM BIZNI URUSHMAYDI: AXIR ANGLIYADAN O'RGANYAPMIZKU!

IJTIMOIY TARMOQ: AQL TARAZISI KERAK

Sadirdin XUDOYQULOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'lumotlarga ko'ra, jami aholining 80 foizdan ortig'i biron-bir ijtimoiy tarmoqda faol. Dunyo yoshlarining 96 foizi esa aynan u orqali o'zaro muloqotga kirishmoqda. Dunyo bo'ylab kompaniyalarning 80 foizdan ortig'i o'z faoliyatida ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanadi. Odamlarning 78 foizga yaqini ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlarga ishonadi. Lekin yoshlarimizning internet va ijtimoiy tarmoqlardan, ulardagi ma'lumotlardan oqilona foydalanishlari borasida jiddiy o'ylab ko'rishimiz kerak bo'lgan jihatlar ham talaygina.
Talabalar, o'quvchilar, umuman, yoshlarni kuzatib boraman. Ularning aksariyati bo'sh qoldi deguncha, darrov qo'l telefonga andarmon bo'ladi. Qandaydir o'yin o'ynaydi, qo'shiq eshitadi, film tomosha qiladi. Ming afsuski, bunday ko'rinish ko'lami yildan-yilga ortib bormoqda. Ularning mobil telefon, internetga bu qadar bog'lanib qolishlarini aslo e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Bu, eng avvalo, yoshlarimizning salomatligiga, ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, puxta bilim olishdan chalg'itadi.

Bundan tashqari, jahon axborot makonida axloqsizlik, fahsh, buzuqlikni targ'ib qiluvchi saytlar va ularning sahifalari keng yoyilgani: mish-mish, yolg'on, uydirmalar, buzg'unchi g'oyalar tarqatilayotgani; e'lon qilingan ayrim maqolalarda ishonchli manbalarning yo'qligi, qaysi kitob yoki saytdan olinganligi, kim yozganligi haqida manbalarning berilmasligi, mualliflar huquqining poymol etilishi, ma'naviy, intellektual huquqlarning buzilishi kabi holatlar yoshlar ma'naviyati va tafakkuriga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

Internetga bog'lanib qolish oqibatida insoniy aloqalar zaiflashadi, yuzma-yuz ko'rishish bo'lmaganligi tufayli o'zaro mehr kamayadi, voqelikdan uzilib qolish yuz beradi, oilaviy ahillikka putur yetadi; yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan noto'g'ri foydalanishi vaqtning isrof bo'lishiga, me'yoridan ortiq foydalanish esa unga o'rganib qolishiga olib keladi.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlar o'qish va bilim olishga yengiltaklik bilan munosabatda bo'lishga (tayyor dars ishlanmalari, matematik masalalar yechimlarini osongina topish hisobiga dars topshiriqlarini mustaqil bajarmaslikka) sabab bo'ladi. Yoshlarning faol harakatda bo'lmasdan, uzoq vaqt monitor ro'parasida o'tirishi ularning jismoniy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Muxtasar aytganda, bu jamiyatga va shaxslararo muloqotga, hamkorlik va o'zaro yordamga layoqatsizlikni, ijtimoiy me'yorlar va umuminsoniy qadriyatlarga befarq munosabatni shakllantiradi.

YUNISEF hisobotiga ko'ra, 15 – 24 yoshdagi shaxslar internetdan eng ko'p foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan guruhga kiradi. 18 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar butun dunyo bo'ylab internet foydalanuvchilarining uchdan bir qismini tashkil qiladi. Tahlillarga ko'ra, bugungi kunda dunyo miqyosida maktab yoshidagi bolalarning 10 – 20 foizi ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolarga uchramoqda va bu holat ularning aksariyati o'n to'rt yoshga to'lgunga qadar rivojlanmoqda. Bunday vaziyatda maktablar bolalar hayotidagi asosiy tizimlardan biri sifatida o'z faoliyati ko'lamini kengaytirishi hamda bu kabi muammolarni hal etishda ishtirok etishi lozim.

Albatta, yoshlarning o'z bo'sh vaqtini nuqul ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazishi tashvishli holat. Bu jamiyatda ilmsizlik, johillik, axloqsizlik tomirining yoyilishiga olib keladi, yoshlar ongi va madaniyatiga salbiy ta'sir qiladi. Bularning oldini olish uchun yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli va qiziqarli tashkil etish: ta'lim muassasalarida sport seksiyalari, musiqa, fan to'garaklarini davomiy tarzda va eng asosiysi, yoshlarni qiziqtira oladigan darajada uyushtirish, shu bilan birga, ularning ichidan iqtidorlilarini topib tarbiyalash zarur.

Yana bir mulohaza. O'quvchilarning gohida yoshlikdan pul topishga majbur bo'lib qolayotganligi – choyxonalarda, to'yxonalarda, bozorlarda sarson kezayotgani ham bor haqiqat. Besh-o'n so'm pul topib, ota-onani mensimaslik, ularning o'gitlariga quloq solmaslik esa o'qish, bilim olishga qiziqishning susayishiga sabab bo'lmoqda. Bola yarimtungacha choyxona, to'yxonada ishlab, bozorda arava tortib, ertasiga darsga kechikib kelib, kelganda ham sinfda mudrab o'tirib, to'liq ta'lim olarmikan? Undan ham yomoni, ana shu to'yxonalarda ba'zi kattalarda ko'rgan yomon odatlarni o'zlashtirib olishi ular tarbiyasining buzilishiga sabab bo'lmaydimi? Ilm o'quv dargohidan, hayotdan olinishi mumkindir, lekin odob, tarbiya, avvalo, oilada, uyda olinadi.

Shu bois aniq vazifalari va majburiyatlari belgilangan «Ota-onalar maktabi»ni shunchaki nomiga, xo'jako'rsinga emas, rasman tashkil etish lozim. Maktablarda ota-onalarga ularning burchi, javobgarligi, majburiyati to'g'risida bilimlar berilishi, bolalarga psixologik yordam ko'rsatilishi kerak. Ota-onalarga farzandlarini o'tish (ulg'ayish) yoshi davrida muammolardan, internet, ijtimoiy tarmoqlardagi zararli ma'lumotlardan asrashni, tahlil qilishni, ma'naviy, estetik va madaniy tarbiya berishda nimalarga e'tibor qilmoqlikni o'rgatish zarur, deb o'ylayman. «Ota-onalar maktabi» saboqlari mahallada hech bo'lmasa bir oyda bir marta tashkil etilishi kerak. Ushbu maktabda saboqlarni oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, olimlar, psixologlar, diniy ulamolar, huquqshunoslar va umuman, tarbiya bo'yicha yetakchi mutaxassislar olib borsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi. Ana shunda «oila – maktab – mahalla» chambarchas bog'langan, ota-onalar, ustoz-muallimlar, mahalla-ko'y farzand tarbiyasida mas'uliyatni to'la-to'kis his qilgan bo'lardi.

Haqiqatan ham, yangi O'zbekistonni shakllantirish, erkin va demokratik fuqarolik jamiyatini qurish, uchinchi Renessans poydevorini bunyod etish jarayonlari ketayotgan bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, yurtdoshlarimiz ongu tafakkurini yuksaltirish, xorij matbuoti, ayniqsa, internetdagi ijtimoiy tarmoqlarda «ochiqlik», «demokratiya», «ommaviy madaniyat» ko'rinishlari ortidagi yot g'oyalar, diniy ekstremistik qarashlar ta'siridan, ayniqsa, yoshlarni asrashda jamiyatimiz ziyolilari, o'qituvchi va murabbiylarning o'rni va roli nihoyatda katta.

Bugun mediamakonda madaniyatsizlik, axloqsizlik ko'rinishlari, millatimiz ma'naviyatiga zid bo'lgan g'oyalar keng targ'ib etilmoqda. Bu bilan kimlardir o'zlarining g'arazli manfaati yo'lida milliy va diniy qadriyatlarimizga, xalqimizning ezgulik hamda yaxshilikka yo'g'rilgan o'ziga xos, umrboqiy an'analari ildiziga bolta urishga urinmoqda. Bunday holatga biz, ziyolilarning tomoshabin bo'lib qarab turishimiz yoki e'tiborsiz bo'lishimiz hech bir mezonga to'g'ri kelmaydi.

Insoniyat tarixining barcha davrida ulug' ajdodlarimiz millatimiz sha'ni, qadr-qimmatini yuksaklarga ko'tarish, milliy qadriyatlarimizni e'zozlash yo'lida kurashgan, bu borada dunyo xalqlariga ibrat bo'lgan. Bugun biz ham bu borada ko'plarga ibrat bo'lishimiz lozim. Navqiron avlodni yot va buzg'unchi g'oyalardan asrab-avaylash, ularga to'g'ri yo'lni ko'rsatish biz uchun ham qarz, ham farzdir.

Prezidentimizning 5-fevral kuni o'tkazgan yig'ilishida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, albatta, bu borada targ'ibot ishlarini kuchaytirishga, uning ilg'or va samarali usullaridan keng foydalanishga yanada ko'proq e'tibor qaratishimiz lozim. Jahon axborot makoni orqali tarqatilayotgan buzg'unchi g'oyalar, g'arazli axborotlar, hayotimiz ziynati bo'lgan odob-axloqimiz, ma'naviyatimizga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, yoshlarni zalolatga boshlaydigan jirkanch tasvir va mediamahsulotlar mohiyatini keskin fosh etib, oqni oq, qorani qora deb, asl haqiqatni yuzaga chiqarish uchun bor imkoniyatimizni ishga solamiz. Hech qachon unutmasligimiz kerak, ma'naviy kurashlar sohasida faqat va faqat azmu shijoat bilan dadil harakat qilgan, oldinga intilgan jamiyatgina maqsadiga yetadi.

Shunday ekan, yoshlarimiz ijtimoiy tarmoqlardan zaruriy ma'lumotlar manbai sifatida foydalanishi maqsadga muvofiq. Xususan, global tarmoq vositasida mamlakat imijini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion loyihalarni amaliyotga joriy etish, O'zbekiston yoshlarining ilmiy va intellektual faoliyati, ularning ijodiy ishlari, kashfiyotlari, ixtirolari va ratsionalizatorlik takliflarini butun dunyoga targ'ib qilish kechiktirib bo'lmas vazifalardan. Pirovardida, ijtimoiy tarmoqlar segmentini faol yoshlar ishtirokida tashqi targ'ibot ishlarining samaradorligini jiddiy ravishda oshiradigan omil darajasiga olib chiqish zarur. Bu bilan biz navqiron avlodni turli balolardan himoya qilish, ularni ma'naviyatli, komil insonlar etib tarbiyalash ishiga hissa qo'shgan bo'lamiz.

«Xalq so'zi» gazetasining 2024-yil 20-fevral sonidan olindi.

OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI DEPUTATLARI DIQQATIGA!

CHO'CHIMANG,

«CHIRIGAN» G'ARB QABUL QILIBDIKU, JANOB DEPUTATLAR!

Tan olaylik: biz ko'pincha noana'naviy qarorlar qabul qilishga ikkilanamiz, hatto qonunlar qabul qilishda ham dunyo davlatlari tajribasini obdon o'rganamiz, ayniqsa, G'arbda bu masalaga qanday yondashilganini mehr bilan tahlil qilamiz. Xabar qilinishicha, buyuk demokratik davlat sanalgan Angliya maktablarida telefonlarga to'liq taqiq qo'yilibdi.

«Times» nashrining yozishicha, yangi qoidalar, shuningdek, o'qituvchilarga bolalar ryukzak va sumkalarini tekshirish huquqini beradi va bu musodara qilingan qurilmalarning yo'qolishi yoki shikastlanishi uchun ota-onalarning da'volaridan qonuniy himoya qiladi.

Taqiqni buzgan va telefonni maktabga olib kelgan o'quvchilar jazo sifatida darsdan keyin qoldiriladi va gadjet noma'lum muddatga musodara qilinadi.

Kechikkan bo'lsa-da, milliy parlamentimiz bu tajribani o'zimizga ham tatbiq etish uchun kerakli qonunni qabul qilishi kerak. Eng muhimi, hech kim bizni urushmaydi: axir Angliyadan o'rganyapmizku!

AQSH yutyaptimi?

Prezident sayloviga qizg'in tayyorgarlik ko'rayotgan AQSHning bugungi holati, ertangi rejalari hamda dunyo iqtisodiyotiga ta'siri haqida jahon OAVlari doimiy tarzda ma'lumotlar berib borayotgani bejiz emas. Chunki ushbu mamlakat dunyoning iqtisodi eng rivojlangan davlati sifatida jahon ahlini e'tiborsiz qoldirmayapti. Ayniqsa, uchinchi jahon urushi haqidagi bashoratlar tinmayotgan bir paytda...

Wall Street Journalining yozishicha, keyingi paytlarda AQSH harbiy-sanoati majmuasi Pentagondan ham, Yevropa davlatlaridan ham yangi – yirik buyurtmalar ola boshladi. Shu sabab ham AQSH harbiy sanoatida ishlab chiqarish 17,5 foizga o'sdi, bu 20 yillik o'sishga teng, deganidir.

Yevropa tabiiy gazni Rossiyadan ko'ra AQSHdan sotib ola boshlagach esa, AQSH suyultirilgan gaz (LNG) bo'yicha dunyodagi eng yirik eksportchiga aylandi.

Ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning sentyabridan 2023-yilgacha Qo'shma Shtatlar qurol sotishdan 80 milliard dollar miqdorida daromad olgan, shundan 50 milliardi Yevropa ittifoqchilaridan kelgan.

O'z muxbirimiz

ABADIY HIKMAT

Yaxshilikdan oldin yaxshilik qilish – fazilat.
Yaxshilikdan keyin yaxshilik qilish – mukofotlash.
Yomonlikdan keyin yaxshilik qilish – oliyjanoblik.
Yomonlikdan oldin yomonlik qilish – jabr-zulm, nohaqlik. Yomonlikdan keyin yomonlik qilish – tenglashish. Yaxshilikdan keyin yomonlik qilish tubanlik va badbaxtlikdir.

Abul-Lays Samarqandiy

«SUYUNCHI» FILMIDAGI ANZIRAT BUVILAR ZAMONIDAN QOLGAN «BIR BOLAGA YETTI MAHALLA OTA-ONA» DEGAN IBRATNI UNUTGANIMIZ UCHUN HAM BOLAMIZ TARBIYASIGA FAQAT MAKTABNI MAS'UL QILIB QO'YDIK. SHUNDAY O'YLAGANIMIZ UCHUN HAM O'QITUVCHINING YOQASIGA YOPISHAYOTGAN QO'LLAR KO'PAYDI.

milliy tiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
21-fevral, 2024-yil
№6 (1238) chorshanba

DUNYO TAN OLGAN IJODKORLAR Zulfiyaxonim HAQIDA

Har yili bahorning ilk kunida vafo va sadoqat timsoli, Xalqaro Javoharlal Neru, "Nilufar" mukofotlari sohibasi shoira Zulfiyaxonimning tavallud kunini nishonlash an'anaga aylangan. Sevimli shoiramizning eng inju his-tuyg'ular, fazilatlar tarannum etilgan she'riyati vaqtlar o'tsa hamki, o'z qadrini yo'qotmadi. Shuning uchun ham serqirra iqtidor sohibasining asarlari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilingan. Zotan, Zulfiyaxonim haqidagi fikrlarni, xassos shoirlarning unga bag'ishlagan she'rlarini hayrat va hayajonsiz o'qish mumkin emas.

Jumladan, O'zbekiston xalq yozuvchisi Oybek Zulfiyaning badiiy ijoddagi ilk qadamlarini shunday e'tirof etgan: «Shoira Zulfiyaning adabiyot olamimizdagi ovozini birinchi bor eshitganimda, birinchi she'rlarini o'qiganimda ilhomning tozaligi, hislarning nafisligi, she'rlarining samimiyligidan suyungan edim». O'zbekiston xalq shoiri Mirtemir esa: «O'zbek poeziyasida Zulfiya degan ismning chaqnab paydo bo'lishi – tong yulduzining tug'ilishiga teng voqea bo'lgani hanuz esimda, o'sha tongning o'ziday rost va yorqin haqiqat bu», degan edi.

Akademik-shoir G'afur G'ulom shoiraga bo'lgan samimiy ehtiromini mana bu satrlarga joylagan:

Surayyo yulduzdan ham balandroq
uchdi shahbozing,
Ko'ngillarning jilosidir rubobi
mahzun ijoding,
Ajab nozik tabiat, zarshunosdir
zehni pardozing,
Muazzam Sharq namoyondir sening
pokiza joningda,
Bu bizning, sening axloq-u iffatga
to'liq nozing.

Ozarbayjonlik shoira Marvarid Dilbozi shunday yozgandi: «Ajoyib tabiatli kishilarni ko'rganda nodir inju topgan kishidek quvonaman, hayotni yanada qattiqroq sevaman. Zulfiyaxonim! Siz men uchun ana shu nodir inju va go'zal kishilardan birisiz».

Mashhur avar shoiri Rasul Hamzatov suyukli shoiramiz ijodiga chuqur hurmat bilan yondashganini esa ushbu e'tirofda ko'rish mumkin: «Shoiralik-shoirlikka nisbatan kam uchraydigan hodisa. Ana shunday yorqin yulduzlar qatorida o'zbek shoirasi Zulfiya munosib o'rin egallaydi».

Buyuk asarlari bilan jahon adabiyoti ixlosmandlarini o'ziga rom etgan Chingiz Aytmatov esa: «Zulfiya nafaqat o'z she'rlarida gavdalangan to'la-to'kis ayol timsoli, balki u mukammal shaxs timsolidir», – deya hayratini yashira olmagan.

O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri Ibroyim Yusupov esa quyidagi satrlarni yozadi:

Qayga borsa, bizning Zulfiya bo'lsin.
O'g'il bo'lsa, o'zing ismin qil tayin:
Mayli G'afur, Hamid, mayli Ibroyim,
Lekin sizga bir nasihat qilayin
Qizingiz qalbi gul, shoira bo'lsin,
Go'zallik timsoli bo'lsin, ilohim,
Ismi ham, o'zi ham Zulfiya bo'lsin!

Chindan ham metin irodali shoiraning saboti har qanday tahsindan ortiq ekanini ta'kidlagan kabardin-bolqor shoiri Qaysin Quliyevning Zulfiya haqidagi fikrlari mana bunday: «Iste'dodi o'z yurtidagina emas, Yevropa va Osiyoda ham tan olingan bu g'oyat go'zal va oqila ayol qancha yo'l bosib o'tmadi, ne kunlarni boshidan kechirmadi, qanday ezgu ishlarni ado etmadi, deysiz! Zulfiya – yer yuzidagi barcha yaxshi, oliyjanob ishlarga qalbi ochiq bo'lgan qudratli, oliyjanob inson».

Belorussiyalik ijodkor Edi Ognesvet esa: Musaffo qalbingiz, she'riyatingiz, odamlarga siz baxsh etgan barcha ezgulik uchun tashakkur sizga, qimmatli Zulfiya, – deya minnatdorlik izhor etgandi.

Zulfiya she'rlarining tarjimoni, taniqli rus adibi Konstantin Simonov: «Men o'z vaqtida Zulfiya she'rlarini hayajon va hurmat bilan tarjima qilganman, zero bu she'rlar insoniylik, beqiyos otashin muhabbat she'rlaridir. Mening nazarimda, Zulfiya o'zining butun ayollik latofati va nafisligi bilan birga mana shunday barkamol inson, baquvvat va mustahkam irodali shoiradir», – deya e'tirof etgandi.

Zulfiya she'rlarining yana bir tarjimoni – boshqird shoiri Mustay Karim shoira she'rlarining o'ziga xos jozibasi haqida shunday degandi: «Zulfiya-she'riyat, Zulfiya va qo'shiq – bu so'zlarni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Uning she'rlari ko'p yillar muqaddam meni hayratga solgan, qalbimni rom etgan edi. Zulfiya she'rini ona tilim-boshqird tiliga o'girar ekanman, ulardan olgan zavq meni lol qoldirgan. Biz Zulfiya ijodi ma'naviy hayotimizning, milliy madaniyatimizning uzviy bir qismiga aylanib ketgani bilan faxrlanamiz».

Chindan ham, Zulfiya hayoti va ijodi ma'naviy jasorat, mehr va sadoqat timsolidir.

Shoiraning o'zi yozganidek:
Ayol baxti!
Menday ayol baxtiga
Taqdir malikani ko'rganmi loyiq?
Xalq mehrida, yorman el shuhratiga,
Baxtli ayol desa haqli xaloyiq.

Iroda PO'LATOVA,
Toshkent shahar, Bektemir tumanidagi 346-maktab o'qituvchisi

NAVOIYXONLIK DAVOM ETMOQDA...

Alisher Navoiyning ulkan ma'naviy merosi, nodir devonlariyu, dostonlari haligacha bashariyat tamadduni va adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda. Hozir Internet insoniyatni o'z domiga tortayotgan bir davrda buyuk mutafakkir ijodini yanada chuqurroq o'rganishga yoshlarni keng jalb etish, Navoiy asarlariga singib ketgan yaxshilik, vatanparvarlik, ezgu insoniy fazilatlarni yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish orqali barkamol avlodni tarbiyalashimiz lozim.

Kuni kecha «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Toshkent shahar Kengashi tashabbusi bilan Yoshlar ishlari agentligi Toshkent shahar boshqarmasi bilan hamkorlikda «Qadriyatlarda Navoiy siymosi» mavzusida insholar tanlovi o'tkazildi.

Quvonarlisi shundaki, tanlov haqida e'lon berilganidan keyin atigi 4 kun ichida 120 dan ortiq yoshlar bu tadbirda ishtirok etish istagini bildirdilar. Murojaat qilgan yoshlarning aksariyati viloyatlardan bo'lishiga qaramay, tanlov kuni 70 nafardan ziyod yoshlar Toshkentga yetib kelishdi. 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar ishtirok etgan tanlov «Navoiyga yo'ldoshmiz» shiori ostida o'tdi. Unda qatnashuvchilar 30 daqiqa ichida «Qadriyatlarda Navoiy siymosi» mavzusida insho yozishdi.

Hakamlar xulosasiga ko'ra, O'zMU talabasi Ozoda Rahmatullayevaning inshosi 1-o'rin, Yangi hayot tumani 332-maktab o'qituvchisi Laylo Hursanova hamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot universiteti talabasi Mohinur Esanovalarning insholari 2-o'ringa munosib deb topildi. 3-o'rin ham shu universitet talabalari Ma'rifat Temirova va Sevinch Muzaffarova, shuningdek, Toshkent davlat transport universiteti akademik litseyi talabasi Ziyodabonu Nazarovaga nasib etdi.

Tanlovning g'olib va sovrindorlari partiyaning Toshkent shahar Kengashi hamda Yoshlar ishlari agentligi Toshkent shahar boshqarmasining esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Laylo MUXITDINOVA,
partiyaning Toshkent shahar Kengashi bosh mutaxassisi

✓ Kuting

✓ Hududlarda

«Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi!..»

Globallashuv insoniyat uchun beqiyos imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bunga milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortayotgani ham misol bo'lishi mumkin. Oqibatda odamlar xudbinlik, mehnatga layoqatsizlik, oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyatiga moslashyaptilar. Jismoniy va aqliy mehnat qilishdan uzoqlashib, pul topishning yengil yo'llarini odatga aylantirishyapti.

Donolarimiz «Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi» deganlar. Bu borada bog'cha, maktab, oliy ta'lim, mahalla yoshlar yetakchilari o'rtasida uzviy hamkorlik zanjiri yaratilmagani yoshlar tarbiyasi bilan bog'liq muammolar ko'payishiga sabab bo'layapti. Yaqinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan o'quvchilarning davomatini yaxshilash bo'yicha alohida ko'rsatma va tavsiyalar berilganini bir esga olaylik. Bundan ko'rinadiki, maktab o'quvchilarining darslarda ishtirok etishi yuzasidan davomatini yaxshilash bo'yicha jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kerak.

Bundan tashqari, yoshlarni harbiy xizmatga saralab olish tizimidagi kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan ham jamoatchilik nazoratini o'rnatish kerak. Chunki yurtimiz sarhadlarini qo'riqlashdek vazifaga mas'uliyatli, sadoqatli, ma'nan va jismonan sog'lom nomzodlar ko'rsatilishi kerakligi e'tiborga olinishi lozim. Mahallalarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash masalalariga ham panja ortidan qaramaslik kerak.

Ta'kidlash joizki, ayni kunlarda «Bir ziyoli – bir mahallaga ma'naviy homiy» tamoyili asosida har bir mahallaga professor-o'qituvchi va taniqli ziyolilar biriktirilgan va ular bilan turli targ'ibot uchrashuvlari tashkil etayotganimiz ijobiy samara bermoqda. Eng muhimi, bu boradagi islohot va tashabbuslarni shijoat bilan davom ettirish, milliy tarbiya tizimining mustahkam asoslarini birgalikda yaratish va jamiyatga tatbiq etishimiz lozim.

Zotan, Millat yetakchisi ta'kidlaganidek: «Biz yaratayotgan Yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan».

Sanjarali IMAMOV,
partiyaning Chilonzor tumani Kengashi raisi

✓ Faollar minbari

«Illat oshdami yoki moshda?»

Bir necha kun avval ijtimoiy tarmoqqa joylashtirilgan bir video go'yo «arini inini qo'zg'adi». Unda nogironlar aravachasidagi farzandini o'qituvchisi kaltaklab, salkam nogiron qilganini onasi iddao qilgandi. Shundan so'ng, kimdir o'qituvchini ayblasa, boshqasi boladayam ayb borligini aytdi. Ammo blogerlarning voqea mohiyatiga yetmasdan turib, ko'proq pedagogni layoqatsizlikda ayblashgani «o'lganni ustiga tepgan» bo'ldi.

Ma'lum bo'lishicha, o'quvchi avvaldan o'qituvchisiga hurmatsizlik qilib kelgan. Hattoki, bir necha bor darsni buzgani uchun tanbeh bergan o'qituvchini kurakda turmaydigan so'zlar bilan haqoratlagan. Xuddi shunday holat takrorlanganda sabr kosasi to'lgan o'qituvchi o'quvchini yoqasidan tutib unga maktabdaligini eslatmoqchi bo'lgan. Ustozining qo'lidan siltanib chiqib ketgan o'quvchi esa boshi bilan borib devorga urilgan.

Yuqoridagi holatda pedagog, maktab direktori, psixologi, hatto mahalla inspektoriniyam oqlab bo'lmaydi, albatta. O'tish yoshida bo'lgan bir o'quvchi shu xulq-atvorga yetgunicha nega tizimli ravishda ish olib borilmagan? Maktabda ishlagan paytimdan bilaman yomon o'quvchi bo'lmaydi.

Jamoatchilikni anchayin bezovta qilgan mazkur voqea mohiyatidan kelib chiqib, mulohaza yuritsak yana oila – maktab – mahalla hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilmaganini ko'rish mumkin bo'ladi. Balki oshirib yuborayotgandirmiz, ammo o'z vazifasiga panja ortidan qarab, «menga nima» deya ish tutuvchilar hisobiga ham bugungi holatga kelib qoldik.

«Suyunchi» filmidagi Anzirat buvilar zamonidan qolgan «Bir bolaga yetti mahalla ota-ona» degan ibratni unutganimiz uchun ham bolamiz tarbiyasiga faqat maktabni mas'ul qilib qo'ydik. Shunday o'ylaganimiz uchun ham o'qituvchining yoqasiga yopishayotgan qo'llar ko'paydi. Darvoqe, yuqoridagi kabi ko'ngilsizliklar sodir bo'lmasligi uchun «Pedagogning maqomi to'g'risida»gi Qonun ijrosi to'la ta'minlanishiga erisha olarmikinmiz? Nima deb o'ylaysiz?

Shaxboz NIZOMIDDINOV

milliytiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
21-fevral, 2024-yil
№6 (1238) chorshanba

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ЯРАТУВЧИЛАРИ ДЕЯ УМИД ҚИЛИНАЁТГАН АВЛОД ВАКИЛЛАРИГА БУ ТАРИҚА МУНОСАБАТДА БЎЛИНАЁТГАНИГА КЎЗ ЮМИБ КЕЛАЁТГАН МУТАСАДДИЛАРНИНГ ЎЗЛАРИ БИЗ КУН ЎТКАЗАЁТГАНДЕК «ДЕРАЗАЛАРГА «КЛЁНКА» ТУТ, СУВ ИСИТИБ КИР ЮВ, БОШ ЮВ ВА ҲОКАЗО» КАБИ ШАРОИТДА ЯШАЙ ОЛИШАРМИКИН-А...

МУАММО БОР, ЕЧИМ-ЧИ?

Мактабни битириб, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети талабаси бўлдим. Талабалик қанчалик қувончли бўлса, масъулиятию қийинчиликлари ҳам шунча оғир экан. Хуллас, тўрт дугона, университетимизнинг Учтепа туманидаги ётоқхонасининг битта хонасига жойлашдик. Хонамиз кичикроқ бўлса ҳам, ҳар бир хонада ювиниш жойлари, ошхонада ҳам барча шароитлар бор эди. Аммо...

ТАЛАБАЛАРГА ҲАМ КУН ЧИҚАР...

ЎзДЖТУда 22 мингдан ортиқ талаба таҳсил олади. Табиийки, талабаларнинг ҳаммасини ҳам университет ётоқхонасига жойлаштириш имкони йўқ. Шу боис, олийгоҳ бу муаммога тадбиркорлар билан шартнома тузиб, талабаларни мослаштирилган бинолар, яъни хусусий ётоқхоналарга жойлаштириш оркали ечим топган. Каминага ҳам II босқичда Чилонзор тумани Қатортол маҳалласида жойлашган, аникроғи, «оптовий бозор»нинг 4 қаватидаги талабалар турар жойи «насиб» килди. Курсдош қизлар билан бу жойни излаб топиш ҳам саргузаштга бой бўлганди. Чунки бинонинг биринчи қавати озиқ-овқат, иккинчиси кийим-кечак дўконлари, тепа қаватлар эса ётоқхона килинган экан.

Куз ойини ёнгинамизда ишлаётган курувчиларнинг шовкин-сурони билан ўтказдик. Хайрият-эй, қишда курилиш ишлари тугади, шовқиндан қутулдик, деганимизда иссиқлик тизими ва иссиқ сувсиз қолдик. Хоналар совуклиги боис, навбати билан шамолладик. Қайта-қайта касал бўлаверганимиздан ҳатто, дорихоначи билан ҳам ўрток тутиндик.

Шу шароитга кўниб, жим яшайвердингларми, дерсиз. Йўқ, албатта, ётоқхона масъуллари ва деканатимизга ҳам оғзаки, ҳам ёзма ариза бердик. Ҳая, ёлғон бўлмасин, ётоқхонадаги 500дан зиёд қизнинг «дод-вой»дан кейин ошхонага янги газлар ўрнатилди. Лекин хонамиз совуклигича колди.

Биласиз, бизда қайсидир соҳага янги рахбар тайинланса, демак янги лойиҳа, янги ташаббуслар туғилади, деган қарашларимиз бор. Аслида, шундай ҳам бўлади. Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлигининг собик раҳбари Абдукодир Тошкулов ҳам ўз тизими йўналишида катор «юришлар» килди. Аммо бу «юришлар»нинг ҳаммаси ҳам у кадар ўзини оклай олмади. Мисол учун, ҳемис тизимини олайлик. Ҳемис бу Ўзбекистонда олий таълим жараёнларини бошқариш учун ишлаб чиқилган ахборот тизимидир. У ходимлар, профессор-ўқитувчи ва талабаларга электрон таълим хизматларини тақдим этади. Ҳемис тизими оркали талабалар ўзларининг рейтинг дафтарчаси, транскрипт, ўзлаштириш кўрсаткичлари, дарс жадваллари, фанларнинг электрон ресурслари каби маълумотларни олишлари мумкин. Аммо чет эл тажрибаларига қарайдиган бўлсак, ҳемисда факатгина баҳо қўйиш учун эмас, балки талаба ўзи кизиккан ва ўзига керакли фанларни танлаб, эркин ўқиш имкони мавжуд. Бизда эса моделига караганда тизими кўпроқ ишлайди. Яна бир муаммо: талабаларга қизиқишга қараб тил танлайсизлар дейилган бўлса-да, амалда ундай бўлмади. Майли бу у кадар муҳим бўлмаслиги мумкин, бирок ётоқхона билан боғлиқ муаммоларга кўз юмиб бўлмайди. Аксарият талабалар турли ташкилотларнинг мослаштирилган биноларида яшашяпти. Бундан ҳам нолишмайди, шўрликлар. Яшаш жойи топилганига шукур қилади. Совуқ кунларни иситиш тизими ҳаминқадар ишлаётган, иссиқ суви йўқ (баъзан илиқ чиқади) айрим ётоқхоналарда ўтказаётган кора кўзлар бир-бирига «ўлма эшагим, арпа ейсан» кабилида таскин беришади. Кулгили таскин-а. Афсуски, вазият шуни такозо қиляпти-да. Ётоқхона назоратчиси (комендант)нинг кўпол муомаласи-ю, бақир-чақирига шундок ҳам тарбиямиз сабаб кўз юмяпмиз. Неча маротаба ҳеч бўлмаса иссиклик тизимини ишлатиб беришни сўраб мурожаат килинган бўлса-да, ҳеч нарса ўзгаргани йўқ. Янги Ўзбекистонда Учинчи Ренессанс яратувчилари дея умид килинаётган авлод вакилларига бу тарика муносабатда бўлинаётганига кўз юмиб келаётган мутасаддиларнинг ўзлари биз кун ўтказаётгандек «деразаларга «клёнка» тут, сув иситиб кир юв, бош юв ва ҳоказо» каби шароитда яшай олишармикин-а...

Мана баҳор келяпти-ку, дерсиз. Тўғри, талабалар кейинги қишгача шароити яхшироқ, иссиқ жой топиш илинжида бу йилги куз-қишни бир амаллаб ўтказишди. Аммо улардан кейин бу ерга жойлаштириладиган талабаларни ҳам шундай шароит кутаётганини кўра-била туриб, индамаслик мумкинми?

Умид киламизки, янги вазиримиз Конгратбай Шарипов нафақат бизнинг, балки барча талабаларнинг ётоқхонадаги аҳволи, шарт-шароитлари билан якиндан танишиб, зарурий чораларни кўрадилар. Биз талабалар эса кейинги қишни дорихоначи билан «ҳамкорлик»да ўтказмасмиз, дея яхши ният киламиз...

Зарина АҲМЕДОВА,
«Миллий тикланиш»
мухбири

✔ Акс-садо

ҲАЛИМА «ЁШ КИТОБХОН» ТАНЛОВИНИНГ ҒОЛИБИ

«Ёш китобхон» танловининг республика босқичида фахрли 3-ўринни қўлга киритган Ҳалима Шаропова Бухоро шаҳридаги 35-умумтаълим мактабининг 8-синфида таҳсил олади.
Ҳали ўқишни билмаган 5-6 ёшлик пайтларида жажжи қизалоққа онаси турли эртак китоблар ўқиб берар, у эса жон қулоғи билан берилиб тингларди.
– Биринчи синфда Чингиз Айтматовнинг «Оқ кема» асарини ўқиб берганман, – дейди онаси Рухшона Шаропова. – Шундан кейин ўзи китоб танлаб, ўқий бошлади. Шу йили «Билимдон» журналида илк шеъри ҳам чоп этилди. 9 ёшида «Ёш китобхон» танловига иштирок этмоқчи бўлди, аммо ёши етмаганлиги учун ўшанда имкони бўлмади. Ҳалиманинг «Ёш китобхон» танловида иккинчи бор иштирок этиши. Биринчи гал шаҳар босқичида 2-ўрин билан кифояланган бўлса, бу гал республика босқичида 3-ўринни қўлга киритди.
– Бу натижа мени сира қониқтирмайди, – дейди ёш китобхонимиз. – Лекин бу иштирок меи учун жуда катта тажриба мактаби бўлди. Ўз устимда янада кўпроқ ишлашим кераклигини англадим. Бу, албатта, ғолиблик учун мустаҳкам замин бўлиб хизмат қилади. Болалигидан адабиётга, мутолаага иштиёкманд бўлган бу иқтидорли қизнинг ҳозирга қадар ўқиган китоблари сони уч юзтага етиб қолди.

Зариф КОМИЛОВ,
ЎзА

Келажакка

«БАРБИ» ҲАМДА «МАША ВА МАЙМОҚ» ЎЛАНКАСИ

Интернетда қизиқ маълумот ўқиб қолдим: ҳиндистонлик адвокат Раман Рай Ханда билан заргарлик буюмлари дизайнери Камини Чопра 1991 йилнинг 25 майида туғилган қизалокларига Барби деб исм қўйишган экан. Шу каби ашаддий мухлислик «касали» сабаб кўплаб «фанатлар» яхши кўрган фильмлари қаҳрамонлари исмини фарзандига қўйишни одат килишган...

«Миллий тикланиш» газетасининг 2-сонида берилган «Келажакка хиёнат бу! Ёки болажонларимизнинг бир йилда факат бир ой мультфильм кўриш имконига эга эканлигининг сабаби нимада?» сарлавҳали маколани ўқиб, айрим мулоҳазаларимни коғозга туширишга карор килдим.

Мен мактабда ишлайман. Табиийки, кунимиз болалар ва ўсмирлар орасида ўтади. Кузатсангиз, ҳар ҳар боланинг феъли ҳар хил, ҳар бирининг ўз максади, ўз орзулари бор. Аммо, афсуски, мактабни битириш арафасида тайинли максади бўлмаганлари ҳам бор. Бошқа томондан бундай ўқувчиларни максадсиз ҳам, деб бўлмайди. Қайси биридир блогер бўлишни кўзлаган, бошқаси «Tik Tok», «Youtube», «Instagram» «юлдузи»га айланмоқчи. Ижтимоий тармокда машҳур бўлиш касб эмаслигини қанча тушунтирманг, уларга кор қилмайди. Куни кеча бошланғич синф қизларининг ўзаро гурунгларини эшитиб колдим:

– Барбини киносини кўрдингми?

– Йўқ, мен факат «Маша ва маймоқ»ни кўраман?

– Шундай «Youtube»га кириб «Барби кино», деб ёзсанг чиқади. Бир кўргин-да..

– Э, ойим телефонларини бермайдилар-да.

– Ҳа, бўпти, бизникига чиқсанг бирга кўрамиз...

Тўғрисини айтсам, педагог ҳар бир янгиликдан хабардор бўлсин, деган талаб доирасида «Барби» киносини кўргандим. Ҳа-я, неварам билан бирга кўрдиму, балога колдим. Аввалроқ ҳамма нарсасини Барбининг кийимлари рангига қараб ўзгартирадиган қизимни ўзимизнинг кўғирчоқларга ўргатгандим. Аммо ижтимоий тармоқлар, ўйинчоқ дўконларию, Голливуд саноатини «ишғол» этган бу малласоч қўғирчоқ ҳақидаги картинадан кейин набирамнинг феъли айниди, колди. Менга ҳам Барбиникига ўхшаган сумка, туфли, соябон...дея хархаша кила бошлади. Бола-да, кўрган нарсасига ҳаваси келади. «Маша ва маймоқ» мультфильмидаги қизалокка таклид қилишни эндигина унута бошлаганди-я.

Дарвоқе, шу ўринда кичкинтойларимизнинг фикру хаёлини «забт» этаётган «Маша ва маймоқ» мультфильмининг асл мазмуни ҳақидаги маълумотни ўқиб, ҳайратга тушдим. Ёзилишича, тиниб-тинчимас, жуда кувнок ва баҳайбат айиққа сўзини ўтказа оладиган бу қизча арвох, аникроғи, ўша айиқ еб қўйган қизалокнинг арвоҳи экан. Ёпирай, мультсериални томоша килганимда шундайлиги хаёлимга ҳам келмаганди. Шунинг учун ҳам ҳеч ўсмас экан-да бу қизча...

Очиғи, «Барби» қўғирчоғининг реал ҳаётидан ҳикоя қилувчи фильм ҳам бир карашда кишида юкори кайфият уйғотиб, завкли томоша улашади. Аммо... менталитет ҳақида гапирсам тағин замондан орқада колганга йўйманг. Ахир моможаримиздан қиз боланинг ҳаёси унинг соясида ҳам акс этиб туриши керакли ҳақидаги ўгитларни эшитиб катта бўлганмиз-ку. Балки шу боисдан ҳозирги қиз боланинг очик-сочиқ, замонавий кийимлари бироз эриш туюлар бизга... Балки биз ҳам замонга андаккина мослашишимиз керакдир. Лекин ўзбек кизлари қанча замонавийлашмасин бизнинг менталитет буни «ҳазм» қилиши қийин. Тўғри, бир неча бор набирамнинг хоҳишига қараб Барби қўғирчоғини олиб бердим. Аммо қўғирчоқ бир ўйинчоқ бўлгани учун ҳам устидаги либоси калта ёки очиклиги у кадар кўзга ташланмайди. Фильмдаги Барби ва у яшаётган шаҳарчадаги барча қиз-йигитларнинг ҳам, Барбининг ҳам кийимлари ўзига ярашган, лекин жуда калта. Хаёлимда «Барби» фильми ижодкорлари ўзларининг ғарбона маданиятини тарғиб килгандек туюлди.

Мавзудан четлашиб кетдим. Юқорида айтганимдек, Маҳбуба Каримованинг мультфильмлар ҳақидаги маколаси анчадан буён ичимда йиғилиб ётган «дардим»ни кўзғади. Ростдан ҳам миллий мультфильмларимиз жуда кам. Таржима мультфильмларни эса бироз аввал айтганимдек, менталитетга тўғри келмайдиган жиҳатлари кўп. Мактабгача таълим ёшида бўлган болага эртак ўқиб бериб, узоқ вақт овунтириш кийин. Битта эртак тугади дегунча қўлига пультни олиб мультфильм кўйиб беришни сўрайди. Айникса, гиперфаол бўлган бола диккатини бошқа томонга буриш машаккат. Шундай вазиятларда ўзимизни мультфильмларни такроран кўришдан безор бўлган набирамга иложсиз хориж мультфильмларини кўйиб бераман.

Эътибор беринг: болаларимизни ватанпарвар килиб тарбиялайлик деяпмизу, уларга асосан ажнабий мультфильмларни кўрсатишга мажбур бўляпмиз. Ахир болани юраги ёки тафаккурига мажбуран ватанни севиш туйғусини жойлаб кўя олмаймиз-ку. Бу туйғу вирусга ўхшаб юқумли ҳам эмас, афсуски. У табиий равишда тарбия билан шакланишини айтмасам ҳам ўзингиз яхши биласиз.

Гапнинг кискаси, бу борада ҳам яхшигина ислоҳот олиб боришга эҳтиёжи бор. Мана, эртага шанба, боғчага боришмайди. Яна ўша муаммо – набираларим кўрмаган қайси ўзбек мультфильмини кўйиб берсам экан...

Дилфуза САНАЕВА,
Қашқадарё вилояти,
Касби тумани
Қамаши қишлоғи
17- мактаб ўқитувчиси

«...Оврўпо муҳорибаси бошланганига тўрт йил бўлган бўлса, йилдан йилга бечора халойиқ, хусусан, Туркистон мамлакатида мутаваттан ислом болалари фақир ва зарурат лойига ботиб турубдурлар. Очлик ва қаҳат балосидин ҳар кун неча минг ва балки милюнлаб гариб ва гураболар кўча бакўча кезиб шаҳардин шаҳарга юриб «оҳ нон» деюб гадолик қилмакдадурлар. Очлик ва совуқдан бир парча нонга зор бўлиб, ҳар кун ва ҳар замон неча минг муслим ва муслималар саби ва сабиялар ниҳоятда фоже' бир аҳволда бу дунёга видў қилмакдадурлар...»

Бу жумлалар «Изҳор ул-Ҳақ» журнали муҳаррири муфти Садриддинхоннинг «Дафъи таҳлика» мақоласидан олинди. Азиз замондош! Тараққийпарвар уламо, ўлка озодлиги йўлидаги курашларда иштирок этган, маърифатпарвар жадидлар билан бир сафда сиёсий кураш олиб борган Садриддинхон муфти Шарифхўжаевни биласизми? Ёхуд бугуннинг ёшлари бор иқтидорини миллатимиз маърифатли бўлиши учун сарфлаган бу тарихий шахс ҳақида маълумотга эгами? Тарихчи олим Баҳром Ирзаевдан навбатдаги "тарихий ҳақиқатлар"ни эътиборингизга ҳавола этамиз.

ТУРКИСТОНДАН ҚУВИЛИБ, ҚАНДАҲОРДА ФАҚИРЛИКДА ВАФОТ ЭТГАН ФИДОЙИ КИМ ЭДИ?

Садриддинхўжа 1877 йили Тошкентнинг Мерганча маҳалласида таниқли уламо ва козикалон Шарифхўжа эшон оиласида туғилган. Аввал эски мактабда, сўнг Тошкентдаги Юнусхон мадрасасида таълим олган. Давр такозосига кўра, Тошкентдаги биринчи сонли 4 йиллик рус-тузем мактабига кириб, Оврўпо илм-фани билан танишади. Шу билан бирга рус тилини мукаммал ўрганади. Бухородаги Мир Араб мадрасасида таҳсили (1905 йилгача) давомида жадид тараққийпарварлик ғоялари билан танишади. Тошкентга қайтгач, Юнусхон мадрасасида мударрис ва имомлик қилади. 1914 йилда Эшонқули мадрасасида бош мударрис ва муфти рутбасига эга бўлади. Бир сўз билан айтганда, Муфти Садриддинхон тараққийпарвар уламолардан бўлиб, Мунавваркори Абдурашидхоновнинг якин дўсти ва ҳаммаслакларидан бири эди. 1916 йилги Туркистонда мардикорчиликка қарши кўзғолон вақтида Садриддинхон муфти ўзининг халқ томонида эканини очиқ баён қилади ва жадид тараққийпарварлари билан бир сафда сиёсий курашга киради. 1917 йилнинг март ойида Мунавваркори Абдурашидхон ўғли тавсияси билан «Шўрои Исломия» жамиятига биринчилар қатори аъзо бўлади ва Туркистондаги илк сиёсий партия – «Турк адам марказияти»нинг ташкил этилишида бош-кош бўлади. «Уламо жамияти»нинг айрим мутаассиб вакилларида Туркистон Мухториятига нисбатан ишончсизлик ортиб бораётгани сабаб Тошкентга қайтиб, тараққийпарвар уламолардан «Фукаҳо жамияти»ни тузади. Жамият Туркистон Мухториятини ўлкадаги ягона сиёсий куч сифатида тан олишини эълон қилади. Большевикларнинг ноқонуний хатти-ҳаракатлари, айниқса, Фарғонада вазиятнинг қалтислашиб бориши жараёнида – 1918 йилнинг февраль ойида «Фукаҳо жамияти»нинг нашри афкори сифатида «Изҳор ул-Ҳақ» журналини нашр эта бошлайди. Илк сонлариданоқ туркистонликларнинг севимли нашрига айланган бу журнал ўз саҳифаларида нафақат диний, балки ўткир иқтисодий, ижтимоий ва сиёсий масалаларга ҳам кенг ўрин беради. Бош муҳаррир муфти Садриддинхон ўзининг «Изҳори ҳақиқат ва иршод» мақоласида шундай ёзади: "...Ўткан сана мардикор масаласи чиқғонда ҳамма шайх-у йигитларимиз кеча ва кундуз болаларимиз мардикорға борур экан деб, ашк дийдалари ила дуода бўлуб, болаларин ғамида неча ойғача ухламай дуода бўлғон зотлар ушбу замонда кеча ва кундуз дуо-ю бадға қўл очар бўлдилар. Бу нечук ҳолат ҳозирда фақат бошларға эмас, балки балойи жон бўлиб бой ва фақир, катта ва кичикларға тушкан таҳликалар кўзға кўрунмай очлик ва ялонғочлик эска тушмай дуо-ю наҳиларни унутиб, ислом олами бир-бириға нон ўрниға ҳақорат ва сафоҳатлар улашурлар, бу ишлар фитна эмасми...»

Минг афсуски, Туркистон аҳлининг асрий орзуси ушалмади. Большевиклар замонавий қуроллар, қолаверса, айрим хоин кимсаларнинг хиёнати ёрдамида халқнинг Мухторият орзусини чилпарчин қилишди. Бироқ Ватан ва ватан фидойиларини бўйсундира олишмади. Шу сирада Садриддинхон 1918 йилнинг баҳорида Мунавваркори Абдурашидхонов маслаҳати билан Туркияга йўл олади ва у ердаги қардошларга Туркистонда кечаётган хунрезликлар ҳақида хабар беради. Улар туркистонлик бирадарларига ҳарканча ёрдам беришни исташмасин жаҳон урушида мағлуб томон бўлган Туркиянинг ўзида ҳам аҳвол оғир эди. Тошкентга қайтган Муфти Садриддинхон ва Саид Носир Миржалиловлар муфти Маҳмудхўжа Бехбудийни маълум ваколатлар билан Истанбулга юборишларини сўрайди. Афсуски, Бехбудий ҳазратлари бу мукаддас йўлда шаҳид бўлади...

Тошкентга келган муфти Садриддинхон Туркистон Республикаси Халқ суди Кенгаши аъзоси бўлади, Юнусхон мадрасасида мударрислик, Ширинқудуқ маҳалласида имомлик қилади. Мунавваркори билан «Миллий иттиҳод» ташкилотини ривожлантиришга киришади. 1920 йилнинг кузида Мунавваркори Бухорога юборилганидан сўнг, 1921 йилнинг 6 март санасидан «Миллий иттиҳод»нинг раиси бўлган муфти Садриддинхон шогирдлари билан Шарқий Туркистондаги Япония ва Буюк Британия консуллари номига хат ёзиб, Ғулжага жўнатади. Номада қуйидагилар баён қилинади:

«Буюк Япония ҳукуматининг Ғулжадаги вакили муҳтарамина!

Ўрта осиёлик Туркистон аҳолилари ярим аср муддат ичинда Руссия ҳукумати золимонаси таъсири ила ҳунар тараққийсидан махрумият чуқурида қолиб руслик миллияти савқи ила руслашдирув сиёсати остинда эзилиб турк ва ислом миллатлари ҳуқуқи сиёсиятдан четка қолиб, зулм ва жабр ичинда умргузар эдилар. Бу ўртада Туркистон аҳолиси ҳукуматнинг бу сиёсатидан норози бўлиб истиклол йўлини излаб миллий истиқлолият қўмитасини тузиб шўъбалари ила бутун Туркистонни қоплади. Ниҳоят ҳукуматнинг бу сиёсати золимонасига тоқат этолмасдан 1916 санада ислоҳ қути ила ўз ҳуқуқларин ҳимоя этди. Оқибат 1917 сана қизил инқилоб билан бир оз умумий озодлик соҳилига чиққан бўлиб ҳуқуқи миллияларини янгидан тиргизмак орзусига кирганди...».

«Буюк Британия ҳукуматининг Қошғар вакили ҳазрати олийларина!

Сиз муҳтарам амният ва ҳуқуқи башарият устози Буюк Британия ҳукуматидан илтимос қилинурким, Туркистон аҳолисининг бу қадар зулм остида яшаб ва Туркистон маданияти, санои нафисалари ботил ва хароб ўлмакиға розилик юзин кўрсатмай силоҳ ва ўзга зарур ашёлар ила ёрдам қўлин этмоғингизни ҳуқуқи инсоният номиндан ўтинамиз...».

Ушбу хатнинг дипломатик назокати ва муфти Садриддинхоннинг нақадар сиёсий етуклиги ҳақида ҳам, агар мактуб етиб борганида қандай сиёсий оқибатларни келтириб чиқариш-чиқармаслиги ҳақида кўп мунозара қилиш мумкин. Аммо афсусланарли ҳақиқат шундаки, хат 1921 йилнинг 16 март куни Авлиёотада чекистлар қўлига тушади. Шундан сўнг 31 март куни «Миллий иттиҳод»нинг бошқа аъзолари ҳам қамоққа олинади... Апрелнинг илк тунларидаги ёқимсиз сукунатдан ухлай олмаётган муфти Садриддинхон кеч соат 12лардан ўтиб, Юнусхон мадрасасидаги ҳужраси атрофида қизил аскарлар йиғилаётганини пайқаб қолади. Девор орқали Эшонқули додхоҳ масжидига ўтиб, бир муддат яширингач, шўроларга қарши очиқ курашишга карор қилади. У саҳар 04:00ларда Яланғоч орқали Тошкентдан чиқиб кетади. Чошгоҳдан ўтиб, Заркатга киради ва қадимий қабристондан кўним топиб, икки кун шу ерда ибодат қилади. Айни пайтда бир неча хатлар тайёрлаб, Қорахитой қишлоғилик собиқ талабаси орқали Тошкентга, Бухоро ва Фарғонага йўллайди. Сўнг довондан ўтиб, Ашобага Раҳмонқули қўрбошига қўшилади. 1921 йилнинг бошида Бухорога борган тошкентлик таниқли жадид муаллимлар Усмонхўжа Тўхтахўжаев ва Тангриқул ҳожи Мақсудийлар хатни олгач, Тошкентга қайтадилар. Муаллимлар Садриддинхоннинг режасига кўра, истиқлолчиларга дарс ва маънавий далда беришлари керак эди. Тошкентда большевиклар XII съездга тайёргарлик кўраётган бир пайтда Муфти Садриддинхон истиқлолчилар армиясининг олий қўмондони Шермуҳаммадбек номидан бу қурултойга Фарғонага мухторият бериш; ҳарбий бошқарувни русларнинг аралашувисиз маҳаллий аҳолига топшириш, иқтисодий ва диний эркинликларга дахл қилмаслик каби 13 банддан иборат ультиматум тайёрлайди. Бироқ большевиклар билан музокара қилиб, Муҳаммад Аминбекнинг хатосини такрорлашдан ҳайиқади. Муфти Садриддинхон, Раҳмонқулибек ва Ислом паҳлавон билан уч кун давомида Шермуҳаммадбекнинг ҳузурида бўлиб, ҳар кандай ҳолда ҳам большевикларга ишониб бўлмаслигини таъкидлайдилар ва шу тарика музокараларга чек қўйилади. Шермуҳаммадбек қўрбоши Афғонистондан қурол етиб келгунича фақат мудофаа жанглари билан чекланишга карор қилади. Афсуски, ваъда қилинган қуроллар келмайди. Бундан ташқари, шўролар фитнаси туфайли қўрбошилар ичида ҳам ўзаро низолар авж олади, халқ қони дарё бўлиб оқа бошлайди...

> **1921 ЙИЛНИНГ 28 НОЯБРЬ КУНИ СЎРОҚДА РУСТАМБЕК НИЁЗБЕКОВ БУ ГАПЛАРНИНГ ҲЕЧ БИРИДАН ХАБАРИ БЎЛМАГАНИ ҲОЛДА МУФТИ САДРИДДИНХОННИ УЛУҒ БИР ОЛИМ СИФАТИДА БИЛИШИ ВА ҚАДРЛАШИНИ ТАЪКИДЛАЙДИ.1921 ЙИЛНИНГ 23 ДЕКАБРИДА ТОШКЕНТДА БЎЛИБ ЎТГАН ҲАРБИЙ ТРИБУНАЛДА МУФТИ САДРИДДИНХОН ШАРИФХЎЖА ЎҒЛИ ОТУВГА ҲУКМ ЭТИЛАДИ.**

1921 йилнинг 9 сентябрига келибгина Қўқонда муфти Садриддинхон Ҳамдамҳожи Қаландаров билан бирга қамоққа олинади. Орадан ўн кун ўтиб, ТуркЧК томонидан уни зудлик билан Тошкентга келтириш тўғрисида махфий қарор чиқарилди ва 27 сентябрь куни унга нисбатан аксилинқилобий фаолият айблови билан жиноий иш очилди. Сўроқларда Садриддинхон ўзига қўйилган айбловларнинг барчасини тан олади ва бу ишларни ёлғиз ўзи истагига кўра амалга оширганини таъкидлайди. Аммо 1921 йилнинг 28 ноябрь куни сўроқда Рустамбек Ниёзбеков бу гапларнинг ҳеч биридан хабари бўлмагани ҳолда Муфти Садриддинхонни улуғ бир олим сифатида билиши ва қадрлашини таъкидлайди... 1921 йилнинг 23 декабрида Тошкентда бўлиб ўтган Ҳарбий трибуналда муфти Садриддинхон Шарифхўжа ўғли отувга ҳукм этилади. Бироқ давлат айбловчиси бўлган Назир Тўрақулов маъруза қилади ва 1921 йил 7 ноябрь куни Октябрь инқилобининг 4 йиллиги санаси муносабати билан отув ҳукми 5 йиллик қамоққа алмаштирилади. Шундан сўнг, Туркистон ҳукуматидаги маҳаллий арбобларнинг барчасининг пири устози бўлган Муфти Садриддинхон Туркистондан чиқиб кетади. Аввал Афғонистонга ўтиб, 1923 йил ўрталаридан Эроннинг Машҳад шаҳрига жойлашади ва Туркистон озодлиги учун курашчи бўлгани туфайли яхши мавке қозонади. У 1934 йил 8 июль куни кечаси Эрондаги вазиятнинг ёмонлашиб бориши ортидан Машҳадни тарк этишга мажбур бўлади. 31 июль куни Кобулга келиб, бир муддат Афғонистондаги ҳолатни ўрганади. 1935 йилнинг 6 августида эса Садриддинхон Ҳиротта сургун қилинади. Сўнгра Қандаҳорга йўлланади ва шу ердан чиқиб кетиши тақиқланади. Ҳуллас, бутун ҳаётини Туркистон эрки ва озодлиги йўлида курашга бахшида этган қаҳрамон ватандошимиз Муфти Садриддинхон Шарифхўжа козикалон ўғли 1944 йил Афғонистоннинг Қандаҳор шаҳрида ғаريбликда вафот этади.

✔ Эҳтиром

МАХТУМҚУЛИ ФИРОҒИЙ ТАВАЛЛУДИНИНГ 300 ЙИЛЛИГИ КЕНГ НИШОНЛАНАДИ

Ўзбекистон Республикаси Президенти «Буюк туркман шоири ва мутафаккири Махтумқули Фироғий таваллудининг 300 йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида» қарор қабул қилди.

Унга мувофиқ, буюк туркман шоири ва мутафаккири Махтумқули Фироғий таваллудининг 300 йиллиги мамлакатимизда кенг нишонланади.

Махтумқули Фироғий таваллудининг 300 йиллигини юқори савияда нишонлаш бўйича белгиланган чора-тадбирлар дастурида:

Шоирнинг «Танланган асарлар»и ҳамда унинг ҳаёти ва ижодий фаолиятига бағишланган илмий мақолалар тўпламини нашрга тайёрлаш ва чоп этиш;

✦ давлат буюртмаси асосида Ўзбекистон ва Туркманистон кино усталари ҳамкорлигида Махтумқули Фироғийга бағишланган бадиий фильм яратиш;

✦ шоир ҳаёти ва ижодий фаолияти ҳақида спектакль саҳналаштириш;

✦ ёш хонандалар ўртасида «Махтумқули шеърлари билан айтиладиган энг яхши қўшиқлар ижрочиси» республика танловини ўтказиш;

✦ Бадиий академиянинг марказий кўргазмалар залида ўзбек ва туркман халкларининг дўстлик ва қардошлик алоқаларини тараннум этувчи тасвирий санъат асарлари кўргазмасини ташкил этиш;

✦ Хива шаҳрида Фанлар академияси, Ёзувчилар уюшмаси, Хоразм вилояти ҳокимлиги ва бошқа тегишли вазирлик ва идоралар билан ҳамкорликда «Махтумқули ижодининг ўзбек адабиёти ва санъатида тутган ўрни» мавзусида халқаро илмий конференция ўтказиш;

✦ мамлакатимиздаги олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар, умумий ўрта таълим ташкилотлари, харбий қисмлар, меҳнат жамоалари ҳамда маҳаллаларда таниқли шоир ва ёзувчилар, олимлар иштирокида учрашувлар, адабий кечалар ташкил этиш;

✦ 2024 йил октябрь ойида Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон давлат академик катта театрида Махтумқули Фироғий хотирасига бағишланган ижодий кеча ўтказиш тадбирлари кўзда тутилган.

ЎзА

fb.com/milliytiklanish.gazetasi
t.me/milliy_tiklanish_gazetasi
www.mt.uz
milliytiklanish2022@umail.uz

«Milliy tiklanish»
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
www.mt.uz
№6 (1238)
21-fevral 2024-yil, chorshanba



ҲИРГОЙИ

Ҳаммамиз қуёшда куйган жиззамиз,
қачон тиз чўкувдик, ҳамон иззамиз,
сирқираб оғрийди шишган тиззамиз,
ўриндан озгина турсак майлиму?

Ўтганлар бари бек, қолган жавдирар,
гардинда кўринмас ғуллар шалдирар,
меҳнатдан ёрилган қўллар қалтирар,
ўз беким ерида юрсак майлиму?

Насимлар гулламиш озод тоғларда,
озодлик муждаси сўлу соғларда,
боболар қийналиб тиккан боғларда
ағанаб бир хаёл сурсак майлиму?

Неча минг аллома, жўмардлар ўлган,
тафаккур сасиган, руҳлари сўлган,
уруғлар айниган тап-тақир чўлда
ўз беким давлатин қурсак майлиму?

Юз эллик йилдирки мана шу ҳолат,
ҳануз давом этар маккор тижорат,
билмадим, қаердан ушбу жаҳолат,
нега сиз бўлмайсиз сира хижолат?..

Нега мен сўрайман сиздан ижозат?!

***

Жангда ўлган эмас бирор баҳодир,
бари ҳалок бўлган хиёнатлардан,
тошдай ухлаганда тўшларин очиб
ё заҳар қўшилган зиёфатлардан.

Бирор асотирда баҳодирларни
ҳаттоки юз бошли аждар емаган,
минг бир синоатли ялмоғизлар ҳам
тоғларни ўйнаган девлар енгмаган.

Бари ҳалок бўлган хиёнатлардан,
барига орқадан санчилган ханжар.
Шундай бўлиб келган азал-у азал
Мана шу жафокаш, кўҳна Ватанда.

Ҳар гал баҳодирлар йиқилар экан
куракка санчилган номард тиғидан,
қайта тирилгандай бўларди ногоҳ
ҳар бир болакайнинг қорачиғида.

Ишонгил, ҳеч қачон сени алдамас
софдил элатларнинг асотирлари,
бирорта баҳодир ўлганмас жангда,
қўрқоқлар ўлдирган баҳодирларни.

ХОНАДОН

Бунда ҳамма ўзини севар,
тағин севар нозик гулларни...
Чақмоқ кўзли болалар эмас.
ўстиришар фақат қулларни.

Бу шўрликлар хонадонида
ғараз, фосиқ ниятлар тунар,
ҳалок бўлар қанча даҳолар,
муттаҳамлар, ўғрилар унар.

Ҳалиям кўз очмаган халқ-да,
ҳали камдир имон, эътиқод,
яшайдилар бир-бирин алдаб,
бир-бирининг мотамидан шод.

Нафас олмай ўтаман ҳар гал,
уф-ф, нақадар ўткир анқийди
ириб кетган орзу-хаёллар,
чириб ётган туйғулар ҳиди.

ОЙ СИНИҒИ

Ой синиғи тўла сувлоққа
шаршарадай қуйилар ёллар.
Бу ёлларни силар меҳрибон
шабадалар — маъюс аёллар.

Кўк ёлларин сувга ботириб
не замонки сув ичар отлар.
Атрофдаги кўм-кўк адирлар
ўтовларда ботирлар ётар...

Бироқ тунда ўт-майсаларга
тўкиладир кимнинг ёшлари?
Нега сувдан бечора отлар
кўтаролмас оғир бошларин?

Нима бўлган уларга ахир
ё сеҳрлаб қўйганми сувлоқ?
Нега жимлик босган воҳада
беғам ухлар ботирлар узоқ?

ТОНГ ОЧАР КЎЗЛАРИН...

Тонг очар кўзларин эриниб,
севинчдан йиғлайди қиёқлар,
чечаклар жилмаяр севиниб,
шамолда чўмилар гиёҳлар.
Ўйноқи шуълалар — болалар
жимгина тарқалар сайхонга,
ўргимчак тўқийди толалар,
хонқизи боради меҳмонга.
Қурбақа варақлар баёзин,
гулдан бол сўради арилар,
чигиртка қайрайди овозин,
парвозда нинachи — парилар.
Чумоли, меҳнаткаш чумоли,
куйинма, атрофга бир қара –
майсалар, оҳ, қандай ҳимоли,
дунёни қилма кўп масхара.

ДИҚҚАТ! ТАНЛОВ!

«МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШ» ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ГАЗЕТАСИ ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИГА САБОК БЕРАЁТГАН ЎЗБЕК ТИЛИ ВА АДАБИЁТИ ЎҚИТУВЧИЛАРИ ЎРТАСИДА

«ЎЗБЕК ТИЛИ – МЕНИНГ ТИЛИМ»

МАВЗУСИДА ИНШОЛАР ТАНЛОВИНИ ЎТКАЗАДИ.

ҒОЛИБ 20 МИЛЛИОН

сўм пул мукофоти билан тақдирланади.

ШУНИНГДЕК, ТАНЛОВДА 30 НАФАР ҚЎШИМЧА НОМИНАЦИЯЛАР БЎЙИЧА ҲАМ ҒОЛИБЛАР АНИҚЛАНАДИ.

ЮТУҚЛАР ҒОЛИБ ҲАМДА ОМАДЛИ УСТОЗЛАРГА 2024 йилнинг сентябрь ойида – Ўқитувчи ва мураббийлар байрами арафасида топширилади.

Мурожаат учун: (90) 245-18-10

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV, Abror PO'LATOV, Amriddin BERDIMURODOV, Akmal JUMABOYEV, Bahodir MAMATXONOV, Ilhom ABDULLAYEV, Ibrohim G'OFUROV, Iroda DADAJONOVA, Minhojiddin MIRZO, Nuriyman ABULXASAN, Odiljon TOJIYEV, Olim O'SAROV, Otabek JIYANBOYEV, Ozodbek NAZARBEKOV, Ortiqali QOZOQOV, To'lqin TESHABOYEV, Feruza MUHAMMEDJANOVA, Xurshid DO'STMUHAMMAD, Sherzodxon QUDRATXO'JA, Shuxratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir:
Mirodil ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT MANZILI:
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Maqsud Shayxzoda ko'chasi, 1 A-uy.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Gazetada Internet ma'lumotlari va suratlaridan foydalanildi.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVBATCHI MUHARRIRLAR:
Abdug'affor OMONBOYEV, Mahbuba KARIMOVA
NASHR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YO'LDOSHEV
NAVBATCHI:
Feruza XODJAYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUDRATOV, Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi.
Korxona manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 5 036.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq
Buyurtma: G – 221
Bosishga topshirish vaqti 21:00.
Topshirildi 02:10

Telefon:
(97) 755-10-11

ISSN 2010-7714

123456